Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(3)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

# VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING OLDINI OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Mo‘ydinova Xonzodabegim Elyorbek qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi. E-mail: x.elyorbekovna@gmail.com

**Valixonova Gulnora Komiljonovna**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti t.f.f.d., dotsent

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishning huquqiy asoslari, milliy qonunchilikning mazkur yo‘nalishdagi imkoniyatlari hamda xalqaro huquqiy standartlarning milliy huquq tizimiga tatbiq etilishi masalalari kompleks ravishda tadqiq etiladi. Tadqiqotda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy, psixologik va huquqiy omillar tahlil qilinib, jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta’minlashda davlat organlari, ta’lim muassasalari, oila va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi o‘rganiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchiligi BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Riyod yo‘riqnomalari hamda voyaga yetmaganlar odil sudloviga oid xalqaro standartlar asosida qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda jazolashga asoslangan yondashuvdan ko‘ra, ijtimoiy reabilitatsiya, individual profilaktika, huquqiy tarbiya va qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berish zarurligi asoslantiriladi. Shuningdek, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** voyaga yetmaganlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, jinoyatchilik profilaktikasi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, bola huquqlari, huquqiy tarbiya, individual profilaktika, ijtimoiy reabilitatsiya, xalqaro huquqiy standartlar, milliy qonunchilik.

**Аннотация.** В данной статье проводится комплексное исследование правовых основ предупреждения преступлений, совершаемых несовершеннолетними, эффективности национального законодательства в данной сфере, а также вопросов имплементации международных правовых стандартов в национальную правовую систему. В рамках исследования анализируются социальные, экономические, семейные, психологические и правовые факторы, способствующие совершению преступлений несовершеннолетними. Особое внимание уделяется взаимодействию государственных органов, образовательных учреждений, семьи и институтов гражданского общества в обеспечении ранней профилактики правонарушений среди несовершеннолетних. Кроме того, законодательство Республики Узбекистан в области профилактики безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних рассматривается посредством сравнительно-правового анализа с учётом положений Конвенции ООН о правах ребёнка, Эр-Риядских руководящих принципов и международных стандартов в сфере правосудия в отношении несовершеннолетних. По результатам исследования обосновывается необходимость приоритетного развития механизмов социальной реабилитации, индивидуальной профилактики, правового воспитания и повторной социальной адаптации несовершеннолетних вместо преимущественно карательного подхода. Также разрабатываются научно-практические предложения, направленные на совершенствование национального законодательства и правоприменительной практики в рассматриваемой сфере.

**Ключевые слова:** несовершеннолетние, преступность несовершеннолетних, профилактика преступности, профилактика правонарушений, права ребёнка, правовое воспитание, индивидуальная профилактика, социальная реабилитация, международные правовые стандарты, национальное законодательство.

**Abstract.** This article provides a comprehensive examination of the legal

framework for preventing crimes committed by minors, focusing on the effectiveness of national legislation and the implementation of international legal standards within the domestic legal system. The study analyses the social, economic, family-related, psychological and legal factors contributing to juvenile delinquency. Particular attention is paid to the cooperation between public authorities, educational institutions, families and civil society organisations in ensuring early prevention of juvenile offending. Furthermore, the legislation of the Republic of Uzbekistan concerning the prevention of neglect and juvenile delinquency is examined through a comparative legal analysis based on the United Nations Convention on the Rights of the Child, the Riyadh Guidelines and international standards on juvenile justice. The research substantiates the need to prioritise social rehabilitation, individual preventive measures, legal education and reintegration mechanisms over predominantly punitive approaches. It also identifies relevant challenges in the national legal framework and develops research-based recommendations aimed at improving legislation and law enforcement practices in the field of juvenile delinquency prevention.

**Keywords:** minors, juvenile delinquency, crime prevention, prevention of offences, children’s rights, legal education, individual prevention, social rehabilitation, international legal standards, national legislation.

**KIRISH:** Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning jadal o‘zgarishi sharoitida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish masalasi davlatning huquqiy siyosati, jamoat xavfsizligi va yosh avlodning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlash tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o‘zining kelib chiqish sabablari, sodir etilish sharoitlari va ijtimoiy oqibatlariga ko‘ra murakkab hodisa bo‘lib, uni faqat jinoyat sodir etilganidan keyin javobgarlik choralarini qo‘llash orqali bartaraf etish mumkin emas. Mazkur muammoni samarali hal etish uchun jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘luvchi omillarni barvaqt aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish

hamda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy muhitini sog‘lomlashtirishga qaratilgan kompleks huquqiy va tashkiliy choralarni amalga oshirish talab etiladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu yosh davrida shaxsning dunyoqarashi, huquqiy ongi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanish jarayonida bo‘ladi. Oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyaviy majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligi, ta’limdan chetda qolish, salbiy tengdoshlar ta’siri, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va nazoratsizlik voyaga yetmaganlarning huquqbuzarlik sodir etish xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli profilaktika faoliyatida voyaga yetmagan shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy sharoiti, ta’lim olish imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalaning xalqaro-huquqiy asoslari, eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada o‘z ifodasini topgan. Konvensiyaning 3-moddasida bolalarga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda bolaning eng ustun manfaatlari birlamchi e’tiborga olinishi belgilangan. Uning 40-moddasida esa qonun bilan ziddiyatga kirishgan bolaga nisbatan uning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qiladigan, jamiyatga qayta integratsiyalashuviga ko‘maklashadigan yondashuvni ta’minlash zarurligi mustahkamlangan. Ushbu qoidalar voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tarbiyaviy hamda ijtimoiy moslashtirish choralariga ustuvor ahamiyat berish lozimligini ko‘rsatadi.Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan muhim xalqaro hujjatlardan yana biri BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrdagi 45/112-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha BMT yo‘riqnomalari» (Riyod yo‘riqnomalari) hisoblanadi. Mazkur hujjatning asosiy tamoyillariga ko‘ra, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish butun jamiyatning hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladigan jarayondir. Unda oilaviy tarbiya, ta’lim, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va jamoatchilik ishtiroki

profilaktikaning muhim yo‘nalishlari sifatida e’tirof etiladi. Xususan, yo‘riqnomalarning 1–3-bandlarida profilaktikaning jamiyat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati va bolaga yo‘naltirilgan yondashuvning zarurligi bayon etilgan.O‘zbekiston Respublikasida ham voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonunidir. Mazkur Qonunning 1-moddasida uning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilangan.Qonunning 3-moddasida asosiy tushunchalar, jumladan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining mazmuni ochib berilgan. Unga ko‘ra, profilaktika voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimidan iborat. Qonunning 5-moddasida esa profilaktika faoliyatining qonuniylik, insonparvarlik, tizimlilik, oilani qo‘llab-quvvatlash va u bilan o‘zaro hamkorlik qilish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlarning tarbiyasiga yakka tartibda yondashish kabi asosiy prinsiplari mustahkamlangan.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarining mavjudligi ularning amaliy samaradorligini doimiy ravishda tahlil qilib borish zaruratini istisno etmaydi. Xususan, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlarni barvaqt aniqlash, individual profilaktika choralarining natijadorligini baholash, oilaviy muhitdagi muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish hamda jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarni qayta ijtimoiylashtirish masalalari chuqur ilmiy-huquqiy tahlilni talab qiladi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar rivojlanishi voyaga yetmaganlar duch kelishi mumkin

bo‘lgan xavflarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, internet orqali noqonuniy faoliyatga jalb etish, kiberzo‘ravonlik, firibgarlik, zararli axborot ta’siri va virtual muhitda sodir etiladigan huquqbuzarliklar profilaktika tizimining zamonaviy sharoitlarga mos ravishda takomillashtirilishini talab etadi. Shu bois an’anaviy profilaktika choralarini raqamli muhitdagi xavflarni hisobga oluvchi huquqiy va tashkiliy mexanizmlar bilan to‘ldirish muhimdir. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotida insonparvarlik va individual yondashuv tamoyillarini kuchaytirish, shuningdek, profilaktikaning ijtimoiy yo‘naltirilgan mexanizmlarini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi.

**Ilmiy ishning natijalari va muhokamasi**: tadqiqot davomida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan milliy qonunchilik normalari, profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari va muassasalarining vakolatlari hamda xalqaro huquqiy standartlar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Tahlil natijalari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish tizimi bir nechta mustaqil yo‘nalishlardan iborat bo‘lishi, ularning samaradorligi esa huquqiy tartibga solish bilan bir qatorda amaliy hamkorlik, individual yondashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga ham bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktikaning ijtimoiy-huquqiy xususiyati aniqlashtirildi**:** O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-sonli «Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonunining 3-moddasida profilaktika tushunchasi voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligi va huquqbuzarliklar sodir etishiga imkon beruvchi sabab hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi sifatida belgilangan. Ushbu norma profilaktikaning faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanmasligini, balki ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirishga ham qaratilganini anglatadi.Qonunning 4-moddasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarning mazmunidan kelib chiqib, profilaktika faoliyatini huquqbuzarlik sodir etilishidan oldingi ogohlantirish, xavf omillarini bartaraf etish va ijtimoiy reabilitatsiya bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, profilaktika faoliyatida individual yondashuvning huquqiy va amaliy ahamiyati asoslandi. O‘RQ-263-son Qonunning 20-moddasida o‘ziga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishi olib boriladigan voyaga yetmaganlar toifalari belgilangan. Xususan, nazoratsiz yoki qarovsiz qolgan, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa toifadagi voyaga yetmaganlar individual profilaktika ishining subyekti bo‘lishi mumkin.

Biroq individual profilaktika samarali bo‘lishi uchun barcha voyaga yetmaganlarga bir xil choralarni qo‘llash yetarli emas. Har bir holatda bolaning yoshi, oilaviy muhiti, ta’lim olish sharoiti, psixologik xususiyatlari va huquqbuzarlikka olib kelgan sabablar alohida o‘rganilishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, individual profilaktika rejasini ishlab chiqishda voyaga yetmagan shaxsning o‘zi va uning qonuniy vakillari bilan ishlash, zarur hollarda psixolog, pedagog va ijtimoiy xodimlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.Tadqiqot natijasida individual profilaktika ishining samaradorligini faqat nazorat tadbirlari soni bilan emas, balki voyaga yetmaganning ta’limga qaytishi, ijtimoiy muhitining yaxshilanishi, takroriy huquqbuzarlik xavfining kamayishi va ijobiy xulq-atvor ko‘nikmalarining shakllanishi kabi mezonlar orqali baholash zarurligi aniqlandi.

Uchinchidan, profilaktika subyektlari o‘rtasidagi institutsional hamkorlikning ahamiyati ochib berildi. O‘RQ-263-son Qonunning 8-moddasida voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimi belgilangan. Qonunning keyingi normalarida bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar, ichki ishlar organlari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-

huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari, ta’lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari hamda boshqa tegishli subyektlarning vakolatlari nazarda tutilgan. Xususan, Qonunning 9–13-moddalari tegishli davlat organlari va ta’lim tizimining profilaktikadagi faoliyatini tartibga soladi. 17¹-modda esa O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va uning hududiy bo‘linmalarining mazkur yo‘nalishdagi ishtirokini belgilaydi. Qonunning 18–19-moddalarida madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining profilaktikadagi ishtiroki nazarda tutilgan. Mazkur huquqiy tartibga solish profilaktikaning ko‘p subyektli xususiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, amaliy samaradorlikni oshirish uchun mazkur subyektlar o‘rtasida axborot almashish, xavf omillarini birgalikda baholash va voyaga yetmagan shaxsga ko‘rsatiladigan yordamning uzluksizligini ta’minlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, bir tashkilot tomonidan aniqlangan muammo boshqa mas’ul subyektlar tomonidan o‘z vaqtida hal etilmasa, profilaktika choralari kutilgan natijani bermasligi mumkin.

To‘rtinchidan, oilaning voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishdagi o‘rni huquqiy jihatdan tahlil qilindi. O‘RQ-263-son Qonunning 7-moddasida ota-ona yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarning profilaktika faoliyatidagi ishtiroki mustahkamlangan. Ushbu norma oilaning voyaga yetmagan shaxs tarbiyasi va xulq-atvorini shakllantirishdagi mas’uliyatini huquqiy jihatdan ifodalaydi. Oiladagi nazoratning yetarli emasligi, zo‘ravonlik, befarqlik yoki tarbiyaviy majburiyatlarning lozim darajada bajarilmasligi voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli profilaktika faoliyatida faqat bolaning xatti-harakatlarini baholash bilan cheklanmasdan, uning oilaviy muhitini ham o‘rganish lozim. Tadqiqot natijasida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalar bilan ishlashda jazolash va ma’muriy ta’sir choralaridan tashqari, ota-onalarning pedagogik va huquqiy savodxonligini oshirish, oilaviy maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda zarur ijtimoiy yordam ko‘rsatish mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Beshinchidan, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik o‘rtasidagi uyg‘unlikning ahamiyati aniqlandi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 3-moddasi bolaning eng ustun manfaatlarini ta’minlashni, 37-moddasi ozodlikdan mahrum etishning qonuniyligi va oxirgi chora sifatida qo‘llanishini, 40-moddasi esa qonun bilan ziddiyatga kirishgan bolalarning huquqlarini himoya qilish va ularni jamiyatga qayta integratsiyalashuviga ko‘maklashishni nazarda tutadi. BMTning 1990-yil 14-dekabrdagi 45/112-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Riyod yo‘riqnomalarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda oilaviy tarbiya, ta’lim, jamoatchilik ishtiroki va yoshlarning ijtimoiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur xalqaro yondashuvlar milliy qonunchilikda belgilangan insonparvarlik, oilani qo‘llab-quvvatlash va individual yondashuv tamoyillari bilan mazmunan uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarning samarali tatbiq etilishi faqat normativ-huquqiy hujjatlarda tegishli qoidalarning mavjudligi bilan cheklanmasligi kerak. Ularni huquqni qo‘llash amaliyotida izchil amalga oshirish, voyaga yetmaganlarning protsessual huquqlarini kafolatlash, muqobil choralarni rivojlantirish va reabilitatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi.

Oltinchidan, raqamli muhitda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning yangi yo‘nalishlari belgilandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi voyaga yetmaganlar uchun yangi ta’lim va muloqot imkoniyatlarini yaratish bilan birga, ularni kiberzo‘ravonlik, internet firibgarligi, noqonuniy faoliyatga jalb etish va zararli axborot ta’siri kabi xavflarga ham duchor qilishi mumkin. Shu sababli zamonaviy profilaktika tizimida raqamli huquqiy savodxonlikni oshirish, internet xavfsizligi bo‘yicha ta’lim dasturlarini joriy etish, bolalarni noqonuniy faoliyatga jalb qiluvchi onlayn xavflarni aniqlash va ularga qarshi tegishli profilaktik choralarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma’lumotlari va shaxsiy hayot daxlsizligini himoya qilish talablari ham qat’iy hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: Voyaga yetmaganlar bilan individual profilaktika ishini olib borishda yagona baholash

mezonlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish. Bunda bolaning oilaviy, ta’limiy, psixologik va ijtimoiy holati kompleks baholanishi lozim. Profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar, Yoshlar ishlari agentligi va mahalla institutlari o‘rtasida aniq vazifalar taqsimotini belgilash. Jinoyat sodir etgan yoki huquqbuzarlik xavfi mavjud bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun individual reabilitatsiya dasturlarini rivojlantirish. Bunday dasturlarda psixologik yordam, ta’limga qaytarish, kasbga yo‘naltirish va ijtimoiy moslashtirish choralari nazarda tutilishi kerak. Oilaviy muhitda muammolar mavjud bo‘lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ota-onalarga huquqiy va pedagogik maslahat berish xizmatlarini kengaytirish hamda oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish. Ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlarning huquqiy va raqamli savodxonligini oshirishga qaratilgan profilaktik mashg‘ulotlarni tizimli tashkil etish. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklardan keyingi davrda ularning jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlash, takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan kuzatuv va ijtimoiy yordam mexanizmlarini rivojlantirish. Umuman olganda, tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish samaradorligi profilaktika choralarining soni yoki nazoratning kuchliligi bilangina emas, balki ularning mazmuni, o‘z vaqtida amalga oshirilishi, individual ehtiyojlarga mosligi va ijtimoiy natijadorligi bilan belgilanadi, degan ilmiy xulosaga kelish imkonini beradi.

**XULOSA:** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish murakkab va ko‘p qirrali huquqiy-ijtimoiy jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishdagi samarali profilaktika faoliyati faqat jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarini qo‘llash bilan cheklanmasdan, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish hamda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy muhitini sog‘lomlashtirishga qaratilishi lozim.Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchiligi tahlil

qilinib, mazkur sohada muayyan huquqiy va tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgani aniqlandi. Xususan, 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-son Qonunda profilaktikaning asosiy prinsiplari, uni amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning vakolatlari hamda individual profilaktika ishining huquqiy asoslari belgilangan. Biroq ushbu normalarning amaliy samaradorligini yanada oshirish uchun profilaktika subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ularning vazifalarini aniq muvofiqlashtirish va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligini baholash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda bolaning eng ustun manfaatlarini ta’minlash, insonparvarlik, individual yondashuv va qayta ijtimoiylashtirish tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Xususan, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Riyod yo‘riqnomalari hamda voyaga yetmaganlar odil sudloviga oid xalqaro standartlar bolalarni faqat huquqbuzarlik subyekti sifatida emas, balki alohida huquqiy himoyaga muhtoj shaxs sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu sababli milliy qonunchilikni takomillashtirish jarayonida xalqaro standartlarning mazmuni va amaliy ahamiyatini izchil hisobga olish lozim. Tadqiqot asosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:Birinchidan, voyaga yetmaganlar o‘rtasida individual profilaktika ishlarini amalga oshirishning samaradorligini oshirish zarur. Bunda har bir voyaga yetmaganning yoshi, oilaviy sharoiti, psixologik xususiyatlari, ta’lim olish holati va ijtimoiy muhitini hisobga oluvchi individual profilaktika dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, profilaktika faoliyatida oila, ta’lim muassasalari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish lozim. Bunda voyaga yetmagan shaxs bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va hal etishda har bir subyektning mas’uliyati hamda vazifalari aniq belgilanishi kerak. Uchinchidan, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llashda tarbiyaviy va tiklovchi yondashuvlarni kengaytirish zarur. Jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi va qonunchilikda belgilangan

shartlardan kelib chiqib, qonuniy muqobil choralar, reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlarini rivojlantirish lozim. To‘rtinchidan, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda psixologik va ijtimoiy yordam xizmatlarining imkoniyatlarini kengaytirish muhimdir. Ayniqsa, oilaviy nizolar, zo‘ravonlik, nazoratsizlik yoki ijtimoiy himoyaga muhtojlik holatlari mavjud bo‘lgan oilalar bilan manzilli ishlash profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak. Beshinchidan, raqamli muhitda voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy va ma’rifiy mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun ta’lim muassasalarida raqamli savodxonlik va internet xavfsizligi bo‘yicha mashg‘ulotlarni kuchaytirish, voyaga yetmaganlarni internet orqali noqonuniy faoliyatga jalb etish holatlarining oldini olish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Oltinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasining samaradorligini aniqlash uchun faqat sodir etilgan huquqbuzarliklar soniga emas, balki takroriy huquqbuzarliklarning kamayishi, ta’limga qaytish, ijtimoiy moslashuv, oilaviy muhitning yaxshilanishi va reabilitatsiya natijalariga ham asoslangan baholash mezonlarini joriy etish lozim. Yettinchidan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish sohasida ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Xususan, jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o‘rganish, xavf omillarini ilmiy asosda baholash va profilaktika dasturlarining samaradorligini muntazam tahlil qilish davlat siyosatining dalillarga asoslangan holda shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning samarali huquqiy mexanizmini yaratish jazolashga asoslangan yondashuvdan ko‘ra, insonparvarlik, erta profilaktika, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va qayta ijtimoiylashtirishga ustuvor ahamiyat berishni talab etadi. Voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikka faqat huquqiy javobgarlik masalasi sifatida emas, balki uning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish zarurati sifatida ham yondashish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-sonli “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/-1685726

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi. 1989-yil 20-noyabr. – https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf

3. United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (The Beijing Rules). UN General Assembly Resolution 40/33, 29 November 1985. – https://digitallibrary.un.org/record/120958

4. United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). UN General Assembly Resolution 45/112, 14 December 1990. – https://digitallibrary.un.org/record/105349

5. Committee on the Rights of the Child. General Comment No. 24 (2019) on children’s rights in the child justice system. CRC/C/GC/24, 18 September 2019. – https://www.ohchr.org/Documents/HRBodies/CRC/GC24/GeneralComment24.pdf

6. Farrington D. P., Welsh B. C. Family-based Prevention of Offending: A Meta-analysis // The Australian and New Zealand Journal of Criminology. – 2003. – Vol. 36, No. 2. – P. 127–151. – https://doi.org/10.1375/acri.36.2.127